O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
BUXORO VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI



“Kreativ pedagogik va psixologik texnologiyalar-axborot ortib borayotgan zamonaviy global dunyoda intellektual faollikni oshirish omili sifatida”

mavzusidagi xalqaro miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materallari to’plami

Материалы международной научно-методической онлайн конференции на тему «Креативные педагогические и психологические технологии как фактор повышения интеллектуальной активности в растущем глобальном мире»

Materials of the international scientific and methodological online conference on the topic "Creative pedagogical and psychological technologies - information as a factor in increasing intellectual activity in the growing global world."



BUXORO-2022 yil 21-IYUN

N.X.ASLANOVA
Buxoro viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORGARLIK: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko`ra, o`qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o`zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo`llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda

Аннотация: В настоящее время, согласно определению PIRLS, читательская грамотность – это способность понимать и использовать формы письменной речи, необходимые обществу и ценимые людьми, а также способность создавать смысл из текстов в различных формах. В рамках исследования основное внимание уделяется демонстрации понимания того, как применять полученную информацию к новым проектам и ситуациям.

Abstract: Currently, according to PIRLS definition, reading literacy is the ability to understand and use written language forms required by society and valued by people, as well as the ability to create meaning from texts in various forms. Within the framework of research, the main focus is on demonstrating understanding of how to apply the acquired information to new projects and situations.

O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`qib tushunish ko`nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o`qish va o`qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo`lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko`ra, o`qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish

va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o`zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo`llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O`quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo`lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o`qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo`llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o`quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo`lishi mumkin. Bular an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko`rinishdagi yozma shakllarni ham o`z ichiga oladi.

Komil insonni tarbiyalashda boshlang`ich sinflarda o`qitiladigan o`quv fanlari orasida ona tili va o`qish savodxonligi darslari salmoqli o`rinni egallaydi. Negaki, uning zaminida savodxonlik va axloqiy – ta`limiy tarbiya asoslari turadi. Bola maktabga kelgach avval o`qish, yozishni o`rganadi. Asta-sekin unga mustaqil kitob tanlay olish, o`qigan kitobini to`g`ri baholay olish kabi ko`nikmalar ham shakllantirib boriladi. Milliy o’quv dasturning bosh maqsadini mustaqil fikrga ega bo`lgan barkamol insonni voyaga yetkazish tashkil etadi. Badiiy adabiyot mutoalasi o`quvchilarni mustaqil fikrlash, mulohaza yuritishga o`rgatadi.

Bugungi kundagi ona tili va o`qish savodxonligi darslarining jahon ta`limidagi ilg`or usullar asosida yaratilgan tizimi o`quvchilarni o`qishga qiziqtirish, ularning fikrlash qobiliyatini o`stirish, kitob bilan ishlash usullarini o`rgatish, og`zaki nutqini o`stirish, muntazam ravishda kitob o`qib borishga rag`bat uyg`otish – ma`naviy madaniyatini yuksaltira boorish, kelajak avlodni o`qitish va tarbiyalash jarayonidagi asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu masalalarni ijobiy hal etish uchun ona tili va o`qish savodxonligi darslarini tashkil etishning qulay usullarini aniqlash, o’quvchilarni motivatsion jihatdan mutolaaga yo’naltirish va mustaqil o’qishga chorlash ishlarini amaliyotga tadbiq qilishish zarur.

O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR:

5. O‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, matn bilan ishlash savodxonligi, tushunish, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish
6. Jadvallar, matn bo‘limlari yoki butun kitoblardan ma’lumotlarni qidirishga o’rgatish
7. O‘quvchilarni bitta matnni o‘qiganda emas, balki bir necha ma’lumotlarni o‘qiganda ham ma’lumotlarni tanlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish

8. O‘quvchilarni mulohaza yuritish va matndan tashqari fikrlash orqali berilgan matnni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish

Avlodlar tarbiyasi bilan bog`liq o`zbek bolalar adabiyoti xalqimiz ma`naviy madaniyati va san`atining muhim qismini tashkil etadi. Shuningdek, boshqa xalqlar adabiyotini o`rganish kichik yoshdagi bolalarni dunyoviy adabiyot haqidagi tasavvurini boyitadi. Sir emaski, badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa. Boshlang`ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi fanining mazmuni va o`quvchilar bilimiga qo`yilgan talablarda boshlang`ich ta`lim bolaning mantiqiy tafakkur qilish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o`z-o`zini anglash salohiyatini, moddiy borliq go`zalliklarini his eta olishga, go`zalik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarni o`ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o`rgatishi lozim. Badiiy matnda ifodalangan asosiy goya-fikr-mazmunni tushunish , anglash sh unchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir.[18] Badiiy asar matni tahlilida uning tili ustida, badiiy vositalari ustida ishlash, qiziqarli kitoblarni tavsiya qilish orqali o`quvchilarda kitob o`qishga qiziqish uyg`otiladi.

Innovatsion usullar asosida tashil etilgan ona tili va o`qish savodxonligi darslari mustaqil fikrga ega bo’lgan kitobxonni tarbiyalashda muhim o`rin tutadi. Til tafakkur bilan bog’liq holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo‘ladi. «Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o‘zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur – obyektiv borliqning intihosi, til esa – ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. So‘z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi[19].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (УзМУ илмий мақолалар тўплами). — Тошкент: Университет. 2002. 22- бет.
2. Бородич А.М. Методика развития речи детей: Учеб. пособ. для студ. пед. инс. 2-еизд.– М.: Просвещение, 1981. –С. 101–255

[18] Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги урни // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Уз МУ илмий макрлалар тўплами). — Тошкент: Университет. 2002. 22- бет.
[19] Бородич А.М. Методика развития речи детей: Учеб. пособ. для студ. пед. инс. 2-е изд. –М.: Просвещение, 1981. –С. 101–255.

124	**MEXRIYA RASHIDOVA** Buxoro tuman 3 – maktab o'qituvchisi **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KREATIVLIGI ASOSIDA KASB – HUNARGA YO'NALTIRISH**	545
125	**MUXTOROVA XILOLA XAMIDOVNA** Buxoro shaxar 2-maktab boshlangich sinf ukituvchisi **TA'LIM_TARBIYADA RAG'BATLANTIRISHNING O'RNI**	550
126	**МУРОДОВА ВАЛИДА АЮПОВНА** Учитель начальных классов 2-й школы города Бухары **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ УЧАШИЙСЯ**	553
127	**МАТЫГУЛИНА КАМИЛЬЯ КАМИЛЬЕВНА** Учитель начальных классов 2-й школы города Бухары **ЭФФЕКТИВНОЕ ФОРМИРОВАНИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЕМ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**	557
128	**ХАМИДОВА ЛОЛА ОКИЛОВНА** Учитель начальных классов №2 города Бухары **РАЗВИТИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ПУТЕМ РАЦИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОБОБЩАЮЩИХ И РАЗВИВАЮЩИХ ЗАНЯТИЙ ПО ЧТЕНИЮ**	562
129	**ABDULLAYEVA MUXAYYO ISKANDAROVNA** Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi"kafedrasi,katta o'qituvchi **TA'LIMGA KREATIV-PEDAGOGIK YONDASHUV - INNOVATSION IJODKORLIK ASOSI**	566
130	**N.X.ASLANOVA** Buxoro viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi **PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORGARLIK: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH**	571
131	**ALIMOVA SHAXLO** Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hudidiy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvch**isi** **TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**	574
	2 SHO`BA: "TA'LIMDA KREATIV PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALAR -AXBOROT ORTIB BORAYOTGAN GLOBAL DUNYODA INTELLEKTUAL FAOLLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA". **2-СЕКЦИЯ–«КРЕАТИВНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ - КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В РАСТУЩЕМ ГЛОБАЛЬНОМ МИРЕ»** **SECTION 2- "CREATIVE PSYCOLOGICAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION - AS A FACTOR FOR INCREASING INTELLECTUAL ACTIVITY IN THE GROWING GLOBAL WORLD** 	